

TURG‘UN ALIMATOVNING DUTOR, TANBUR VA SATO CHOLG‘ULARIGA BAG‘ISHLANGAN IJODIY MEROSI



Rasulov Uktamjon Ulmasovich

Yunus Rajabiy nomidagi O‘z.MMSI
“Maqom xonandaligi” kafedra mudiri v.b

Annotatsiya Maqolada O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Alimatovning o‘zbek musiqa san‘atida tutgan betakror o‘rni, ayniqsa tanbur, dutor va sato cholg‘ulari ijrochiligiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Ustoz ijodining shakllanish jarayonlari, ijrochilik maktabi, uslubiy xususiyatlari va ustoz-shogird an‘anasida qoldirgan ta‘siri haqida ilmiy asoslangan fikrlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Sato, tanbur, noxun, uslub, pedagogika, tanbur ijrochiligi, dutor, cholg‘ular.

Аннотация: В статье анализируется уникальная роль народного артиста Узбекистана Тургуна алиматова в узбекском музыкальном искусстве, особенно его вклад в инструментальное исполнение танбура, дутора и Сато. Даны научно обоснованные суждения о процессах становления творчества мастера, о школе исполнения, о стилистических особенностях и о влиянии, которое мастер-ученик оставил на традицию.

Ключевые слова: Сато, танбур, нохун, стиль, педагогика, исполнение танбура, дутор, инструменты.

Annotation: The article analyzes the unique role of the People's Artist of Uzbekistan Turgun Alimatov in the Uzbek musical art, especially his contribution to the instrumental performance of tanbur, dutor, and Sato. It provides scientifically based judgments about the processes of the master's creative development, the school of performance, the stylistic features, and the influence that the master-student left on the tradition.

Keywords: Sato, tanbur, nohon, style, pedagogy, performance of tanbur, dutor, instruments.

O‘zbek musiqa san‘ati tarixida o‘z ovozi, uslubi va mahorati bilan alohida iz qoldirgan san‘atkorlardan biri Turg‘un Alimatovdir. U nafaqat ijrochi, balki ijodkor sifatida ham tanbur, dutor va sato cholg‘ulari orqali maqom san‘atini yuksak bosqichga olib chiqqan. Olimlar ta‘kidlaganidek, milliy musiqa merosimiz san‘atkor ijodida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Uning san‘ati xalqimiz ma‘naviyatining ajralmas bo‘lagi sifatida xalqaro miqyosda ham e‘tirof etiladi.

Metodologiya: Tadqiqot davomida Turg‘un Alimatovning hayoti va ijodi haqidagi manbalar, maqomshunos olimlarning ilmiy qarashlari, shogirdlarning xotiralari hamda audio-video yozuvlar tahlil qilindi. Shu jarayonda tarixiytahliliy metod, qiyosiy yondashuv hamda og‘zaki an‘anaga asoslangan kuzatish usullaridan foydalanildi. Yuldashev (2025)ning fikricha, Sharq musiqa pedagogikasi yoshlar tafakkurida san‘atga bo‘lgan mehrni uyg‘otishda muhim o‘rin tutadi.

Natijalar: “Turg‘un Alimatovning tanbur ijrochiligi o‘ziga xos ohangdorlik, falsafiy teranlik va ruhiy ta‘sirchanlik bilan ajralib turadi. Uning dutor ijrochiligida nafislik, lirizm va xalqona ruh kuchli seziladi.” [3.1004-b.] Sato cholg‘usidagi asarlari esa milliy merosimizda kamyob namunalar sifatida qadrlanadi. Ustozning ijodiy faoliyati davomida ko‘plab shogirdlar yetishib chiqib, bugungi kunda ham uning an‘anasini davom ettirmoqda. Muhokama Turg‘un Alimatov ijodining asosiy jihatlaridan biri– ustoz-shogird an‘anasini rivojlantirganidir. [4. 2-b.] Matyakubov ta‘kidlaganidek, musiqa ta‘limida zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan ustozlik traditsiya metodlari samaradorlikni oshiradi. Shu bois, Alimatov maktabi nafaqat cholg‘u chalish usullarini, balki musiqa san‘atiga sadoqat va mehrni ham shakllantirgan. O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faxriy professori Turg‘un Alimatov milliy musiqa san‘ati

tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk namoyandalardan biridir. U nafaqat beqiyos sozanda, balki mohir bastakor, mehribon ustoz sifatida ham milliy cholg'u ijrochiligini yangi bosqichga ko'tarishda katta xizmat qilgan. Shu bois hayotlik davridayoq u xalq orasida afsonaviy san'atkor darajasiga ko'tarilib, "XX asr tanburchisi", "tillo noxun" kabi yuksak ta'riflarga sazovor bo'ldi.

Ijodkorning o'ziga xos talqinlari, noodatiy chalish uslublari, mumtoz musiqaga bag'ishlangan ko'p yillik fidokorona mehnati yangi kuylar va ijro maktabining shakllanishiga zamin yaratdi. Ustoz ijro san'atida kuylarni o'rganishdan tortib, ularni sahnaga olib chiqishgacha bo'lgan jarayonni mashaaqqatli, lekin bir o'zi lazzatli va betakror zavq baxsh etuvchi yo'l sifatida ko'rardi. Shu sababdan ham Turg'un Alimatov ijrosi tinglovchining qalbiga chuqur kirib boradi, ularda ruhiy tasalli uyg'otadi. Uning san'ati bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, xalq mehrini qozongan holda milliy madaniyatimizning ajralmas qismiga aylangan.

Sozandaning ijodi nafaqat respublikada, balki xalqaro miqyosda ham keng tanildi. Hayotining so'nggi yillarida u Rossiya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi mamlakatlarda ko'plab konsert va uchrashuvlarda qatnashdi. G'arb auditoriyasiga tanbur, dutor va satoda ijro etgan mumtoz kuylarining ta'siri nihoyatda katta bo'lib, tomoshabinlarning qizg'in olqishlariga sazovor bo'lgan. Bugungi kunda ham Turg'un Alimatov nomi nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida milliy san'at darg'asi sifatida e'tirof etiladi. U mumtoz an'analar asosida samarali ijod qilib, xalqimizning ruhiy olamini dunyo xalqlari qalbi bilan bog'lashda katta hissa qo'shdi.

Ustoz san'atkorga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va ma'rifiy adabiyotlar respublikamizda ham, chet elda ham yaratilgan bo'lsa-da, ularning soni hali ko'p emas. Shunga qaramay, Turg'un Alimatovning milliy musiqamiz rivojida o'rni va merosi yuksak qadrlanib kelmoqda.

Sozanda umrining oxiriga qadar O'zbekiston davlat konservatoriyasida tanbur san'ati bo'yicha dars bergan va ko'plab shogirdlarni tarbiyalagan. Ular orasida mashhur xonandalar va sozandalar, malakali pedagoglar yetishib chiqqan. Jumladan, O'zbekiston xalq xofizlari Hasan Rajabiy, Mahmudjon Tojiboev, sozandalar Abduhoshim Ismoilov, Abdurahim Hamidov, Alisher, Valisher va G'anisher Alimatovlar, nabirasi Abror Zufarov, professor Abdulla Umarov, O'zbekiston xalq artisti Toir Qoziyev va boshqa ko'plab san'atkorlarni sanash mumkin.

Turg'un Alimatovning ijro maktabi bugun ham davom etmoqda. Uning shogirdlari, nabiralari va izdoshlari tanbur, dutor, sato chalish an'alarini yangi bosqichga olib chiqib, ustozining merosini munosib davom ettirishmoqda. Buyuk san'atkorning nomi va siymosi o'zbek musiqiy madaniyati tarixida abadiy saqlanib qoladi.

Natijalar: O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston davlat konservatoriyasi faxriy professori Turg'un Alimatov milliy musiqas san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk namoyandalardan biridir. U nafaqat beqiyos sozanda, balki mohir bastakor, mehribon ustoz sifatida ham milliy cholg'u ijrochiligini yangi bosqichga ko'tarishda katta xizmat qilgan. Shu bois hayotlik davridayoq u xalq orasida afsonaviy san'atkor darajasiga ko'tarilib, "XX asr tanburchisi", "tillo noxun" kabi yuksak ta'riflarga sazovor bo'ldi.

Ijodkorning o'ziga xos talqinlari, noodatiy chalish uslublari, mumtoz musiqaga bag'ishlangan ko'p yillik fidokorona mehnati yangi kuylar va ijro maktabining shakllanishiga zamin yaratdi. Ustoz ijro san'atida kuylarni o'rganishdan tortib, ularni sahnaga olib chiqishgacha bo'lgan jarayonni mashaaqqatli, lekin bir o'zi lazzatli va betakror zavq baxsh etuvchi yo'l sifatida ko'rardi. Shu sababdan ham Turg'un Alimatov ijrosi tinglovchining qalbiga chuqur kirib boradi, ularda ruhiy tasalli uyg'otadi. Uning san'ati bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, xalq mehrini qozongan holda milliy madaniyatimizning ajralmas qismiga aylangan.

Sozandaning ijodi nafaqat respublikada, balki xalqaro miqyosda ham keng tanildi. Hayotining so'nggi yillarida u Rossiya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi mamlakatlarda ko'plab konsert va uchrashuvlarda qatnashdi. G'arb auditoriyasiga tanbur, dutor va satoda ijro etgan mumtoz kuylarining ta'siri nihoyatda katta bo'lib, tomoshabinlarning qizg'in olqishlariga sazovor bo'lgan. Bugungi kunda ham Turg'un Alimatov nomi nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida milliy san'at darg'asi sifatida e'tirof etiladi. U mumtoz an'analar asosida samarali ijod qilib, xalqimizning ruhiy olamini dunyo xalqlari qalbi bilan bog'lashda katta

hissa qo'shdi.

Ustoz san'atkorga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va ma'rifiy adabiyotlar respublikamizda ham, chet elda ham yaratilgan bo'lsa-da, ularning soni hali ko'p emas. Shunga qaramay, Turg'un Alimatovning milliy musiqamiz rivojidagi o'rni va merosi yuksak qadrlanib kelmoqda.

Sozanda umrining oxiriga qadar O'zbekiston davlat konservatoriyasida tanbur san'ati bo'yicha dars bergan va ko'plab shogirdlarni tarbiyalagan. Ular orasida mashhur xonandalar va sozandalar, malakali pedagoglar yetishib chiqqan. Jumladan, O'zbekiston xalq xofizlari Hasan Rajabiy, Mahmudjon Tojiboev, sozandalar Abduhoshim Ismoilov, Abdurahim Hamidov, Alisher, Valisher va G'anisher Alimatovlar, nabirasi Abror Zufarov, professor Abdulla Umarov, O'zbekiston xalq artisti Toir Qoziyev va boshqa ko'plab san'atkorlarni sanash mumkin.

Turg'un Alimatovning ijro maktabi bugun ham davom etmoqda. Uning shogirdlari, nabiralari va izdoshlari tanbur, dutor, sato chalish an'alarini yangi bosqichga olib chiqib, ustozining merosini munosib davom ettirishmoqda. Buyuk san'atkorning nomi va siymosi o'zbek musiqiy madaniyati tarixida abadiy saqlanib qoladi.

Turg'un Alimatovning ijodiy va ijroviy merosi turli bastakorlik yo'nalishlari bilan boyib, o'ziga xos uslubiy jihatlari bilan ajralib turadi. Avvalo, u milliy kuy va qo'shiqlarni ijro jarayonida qayta talqin qilish orqali yangicha musiqiy ifodaga erishdi. Masalan, "Fabrika", "Bilaguzuk", "Jigar pora" singari mashhur kuylar hamda turli "Tanovar" yo'llari — "Farg'ona tanovari", "Qo'qon tanovari", "Adolat tanovari" kabi namunalar ustoz ijrosida o'ziga xos uslubda jarangladi.

Shuningdek, Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarini bastakorona qayta ishlash orqali yangi ijro talqinlarini yaratdi. Bunga "Segoh", "Navrozi Ajam", "Eshvoy", "Kurd", "Chorgoh", "Toshkent Irog'i", "Cho'li Iroq", "Girya 1–2" kabi maqom yo'llarini misol keltirish mumkin. Bu asarlar ijrosida Alimatovning nozik didi va individual yondashuvi yorqin namoyon bo'ladi.

Sozanda, shuningdek, Shashmaqom cholg'u va ashula yo'llarini ijro etishda ham o'zining betakror talqinlarini yaratdi. Jumladan, "Navo", "Saraxbori Buzruk", "Samo'i Dugoh", "Samarqand Ushshog'i" kabi asarlarni ijro etishda uning san'ati o'ziga xos ifoda kuchi bilan ajralib turadi.

Ustoz ijodida zamondosh bastakorlarning kuy va qo'shiqlari ham muhim o'rin tutgan. Xususan, Doni Zokirovning "Ey sabo", Hoji Abdulaziz Rasulovning "Guluzorim", Yunus Rajabiyning "Kuygay", To'xtasin Jalilovning "Yolg'iz" kabi mashhur asarlari Turg'un Alimatov ijrosida yangi ohang va mazmun kasb etgan.

Bundan tashqari, sozanda o'zining bastakorlik faoliyati davomida milliy cholg'ular uchun bir qator noyob asarlar yaratgan. Ular qatoriga "Dutor navosi", "Tanbur navosi", "Sato nolasi", "Improvisatsiya" kabi musiqiy durdonalarni kiritish mumkin. Ushbu asarlar ustozning ijodkor sifatida ham o'z maktabini yaratganligini yaqqol ko'rsatadi. Turg'un Alimatovni asosan tanbur yoki sato cholg'ularida virtuoz deya ta'riflanadi. Ammo ijodkor nafaqat yuqoridagi cholg'ular balki boshqa cholg'ularda ham birdek ijro eta ola bilish qobiliyatiga ham ega edi. Bu borada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tohir Rajabiy shunday xotirlaydi: "Turg'un aka jiddiy ko'ringani bilan hayotda juda xushchaqchaq inson edilar. Ularni ikki xil kulgulari bor edi, uzun kulgulari va qisqa kulgulari. Ana shu 80-85-yillarda gramplastinkaga Hasan akamni 2-3 ta ashula yozadigan bo'ldik. Shunda Turg'un aka keldila. Ular asli dutorchi bo'lsalarda, bir nechta cholg'u - skripka, tanbur, sato, g'ijjklarda ham bir xil qilib chala olardilar. Shunda Nabijon Hasanov Turg'un akani barcha cholg'ulardagi ijrolarini yozib oldilar. Yozib olingan cholg'ulardagi ovozlarni yig'ib bitta ansambl qildilar. Uni tinglaganimizda esa, bu asarni haqiqatdan ansambl chalgandek bo'lardi. Turg'un Alimatov barcha cholg'ularda qochirim, nolalarini ham bir xil qilib chalar edilar. O'sha asar hozir ham oltin fonda saqlanib turadi. – deya O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tohir Rajabiy xotiralaridan ta'rif qilgan.

Xulosa: Turg'un Alimatov o'zbek musiqa san'atining yuksak cho'qqilaridan birini zabt etgan ijodkordir. Uning tanbur, dutor va sato ijrochiligidagi san'ati milliy madaniyatimizni dunyo miqyosida tanitdi. Ustozning ijodiy maktabi va shogirdlari orqali uning san'ati davom etmoqda. Demak, Alimatovning ijodi kelajak avlodlar uchun bebaho ma'naviy xazina bo'lib qolaveradi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Ulmasovich, R. U. (2025). O'zbek mumtoz musiqasi merosining milliy va
2. Yuldashev, M. U. (2025). Sharq musiqa madaniyatining pedagogikasi va uning yoshlar tafakkurida <https://doi.org/10.5281/zenodo.15389746> aks etishi. Zenodo.
3. Karimova, M. (2025). Shashmaqom cholg'u qismlarining ijrochiligi. Modern Science and Research, 4(3), 1002–1008.
4. Matyakuobov, Sh. B. (2022). DOSTIZHENIYA I NEDOSTATKI MAKOMNOGO OBRAZOVANIYA S ISPOLZOVANIEM SOVREMENNYX TEXNOLOGIY V TRADITSII NASTAVNICHESTVA. Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya, (2(171)), 92-94 Prospects of Modern Science and Education, 1(3), 8-13. umumbashariy qadryatlari. France-Scientific Review of the Problems and